

**AXBOROT – KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB CHET  
TILLARINI O'QITISH**

*O'zbekistan ISFT (International School of Finance and  
Technology) International Relations Bachelor  
Manzura Ibragimova Marat qizi*

**Annotatsiya:** Chet tillarini o'qitishga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotgan davrda, tilni o'qitish va o'rganishda internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish ko'p darajali anglashni talab qiladi, bu esa eshitish, o'qish, ko'rish va mulohaza yuritish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Ushbu maqolada, AKT vositalarining til o'qitish jarayonidagi o'rni tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** axborot texnologiyalari, interaktiv ta'lim, raqamli platforma, onlayn ta'lim, zamonaviy metodika.

**Annotation:** At a time when the demand for language learning is increasing, the use of the internet and social media in language teaching and learning requires multi-level comprehension, which in turn develops skills in listening, reading, visual perception, and reasoning. This article analyzes the role of ICT tools in the process of language education.

**Keywords:** information technologies, interactive education, digital platform, online education, modern methodology.

**Аннотация:** В период, когда потребность в обучении иностранным языкам продолжает расти, использование интернета и социальных сетей в процессе преподавания и изучения языка требует многогранного понимания, что, в свою очередь, развивает компетенции в аудировании, чтении, зрительном восприятии и рассуждении. В данной статье рассматривается роль ИКТ - средств в процессе обучения языкам в системе образования.

**Ключевые слова:** информационные технологии, интерактивное обучение, цифровая платформа, онлайн-обучение, современная методика.

Globalizatsiya davrida ta'lim tizimini raqamlashtirish jarayoni tez sur'at bilan rivojlanmoqda. Ushbu jarayon chet tillarini o'qitish va o'rganish sohasiga ham o'z ta'sirini sezilarli darajada ko'rsatmoqda. Ayni vaqtda o'quvchilar global tarmoqqa kirish bo'lmagan dunyoni bilmaydilar. Shuning uchun ham til o'qitishni o'rganayotgan ko'plab tadqiqotchilar Turula tomonidan taklif qilingan shiorga qo'shilishadi: "If you can't beat them – join them," pointing out that "if our students – digital natives – already exist and function successfully in virtual reality, we should educate them in their natural environment instead of trying to invite them to lessons in our world".[1]

Axborot texnologiyalari til o'rganishda faollikni va mustaqil izlanishni kuchaytiradi. Hozirgi davrda o'qituvchilar va o'quvchilar mobil ilovalar, sun'iy intellekt va onlayn platformalar kabi vositalardan keng foydalanishmoqda. Ulardan darslardagi mavzuni yoritishda foydalanilsa, darsning samaradorligi oshadi va o'quvchining darsga bo'lgan qiziqishi ortadi. Bunday vositalardan to'g'ri va samarali foydalanish uchun albatta malaka va metodik yondashuv zarur. Ushbu maqolada axborot texnologiyalarining chet tilini o'qitishdagi o'rni, afzalliklari va ijobiy, salbiy jihatlari ko'rib chiqamiz.

Axborot – kommunikatsiya texnologiyalari (**AKT**) — bu axborotni yaratish, saqlash, uzatish va qayta ishlash kabi imkoniyatlarni beruvchi texnologiyalar yig'indisi. Ta'lim sohasiga axborot texnologiyalarining kirib kelishi o'qitish jarayonini yanada interaktiv, qiziqarli va samarali bo'lishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, chet tillarini o'qitishda axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanib, darslarni audio va video materiallar bilan boyitish orqali o'quvchilarning mustaqil ishlashini kuchaytirib, rag'batlantirish mumkin.

**Multimedia vositalari** — video, audio, animatsiyalar, slaydlar orqali o'rgatish. Bu vositalar ko'rish, eshitish orqali xotirada yaxshiroq saqlanadigan bilimlarni shakllantirishga yordam beradi.[3]

**Internet resurslari** — onlayn darsliklar, interaktiv saytlar, ta'lim platformalari (masalan: BBC Learning English, Duolingo, Memrise, Kahoot, Quizlet) chet tilini mustaqil o'rganishga yordam beradi.[4]

**Mobil ilovalar** — til o'rganish uchun yaratilgan maxsus mobil dasturlar (Duolingo, HelloTalk, LingQ va boshqalar) o'quvchini har qanday joyda va vaqtda o'qish imkoniyati bilan ta'minlaydi.[5]

**Sun'iy intellekt asosidagi texnologiyalar** — masalan ChatGPT yoki Grammarly kabi vositalar yordamida matn yozish, tuzatish, tarjima qilish, muomala ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.[6]

**LMS (Learning Management System)** — Google Classroom, Moodle kabi tizimlar orqali dars materiallarini tarqatish, baholash, aloqa qilish kabi faoliyatlar tartibga solinadi.[7]

Axborot texnologiyalarining chet tilini o'qitishdagi eng birinchi afzalliklaridan biri bu moslashuvchanlikdir. Istalgan vaqtda, istalgan joyda o'quvchilar o'zlarining bo'sh vaqtlarida bilim olishlari mumkin. Matn, video, audio, test va o'yinlar orqali darslarni o'zlashtirish ko'p formatlilik imkonini beradi. Shuningdek yana interaktivlik ham o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida muloqotni shakllantiradi. Axborot texnologiyalari orqali til o'rganish individuallikni ta'minlaydi ya'ni o'quvchi o'zining o'rganish darajasi va uslubidan kelib chiqib, eshitish, ko'rish, yozish va o'qish orqali o'ziga qulay uslubda ta'lim oladi. Qo'shimcha ravishda xalqaro resurslardan foydalanish imkoniyati ham mavjud. O'quvchi mahalliy darsliklar bilan cheklanibgina qolmay, balki butun dunyodagi ilg'or va zamonaviy til o'rganish resurslaridan foydalanishi mumkin. Bu esa albatta dunyo darajasidagi sifatli ta'limga yo'l ochadi.

Axborot texnologiyalarining ijobiy tomoni o'quvchilarni til o'rganishga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi va darslarni zerikarli bo'lishini oldini oladi. Til o'rganish uchun ishlab chiqilgan har xil interaktiv o'yinlar orqali o'quvchi darsga o'yin sifatida qaraydi va yanada faol ishtirok etishga harakat qiladi. Axborot texnologiyalari orqali chet tilini o'rganish o'quvchiga o'z yutuqlarini kuzatib borish imkonini beradi va o'quvchi o'zidagi o'sishni ko'rib, ishtiyoqi yanada ortadi. O'z-o'zini baholash ko'nikmasini shakllantiradi ya'ni, o'quvchi onlayn bajargan testlar va mashqlarini darhol tekshiradi va xatolari ustida ishlaydi. Chet tilini o'rganishda ko'proq gapirish va tinglash bo'yicha muammolar uchraydi. Ayniqsa, ingliz, fransuz va nemis tili kabi talaffuzi qiyin bo'lgan tillarni o'rganishda video va audio resurslar yordamida to'g'ri talaffuzni eshitadi va uni takrorlaydi. Misol uchun ElsaSpeak o'quvchi aytgan so'zni eshitib uni tahlil qiladi va to'g'rilaydi. Shu yo'sinda o'quvchi o'z talaffuzi ustida mustaqil ishlaydi.

Yozma nutqni rivojlantirishda esa o'quvchilar ishtimoijiy tarmoqlar orqali bloglar, forumlar, onlayn muhokamalar, elektron pochta va chatlar orqali har xil auditoriyaga murojaat qilishni, o'z fikrlarini aniq va tushunarli bayon qilishni o'rganishadi.

Axborot texnologiyalari orqali chet tillarini o'qitishning ijobiy va afzal tomonlari bo'lsa-da, ayrim salbiy tomonlari ham bor. Eng avvalo internet aloqasi, zamonaviy qurilmalar va dasturiy ta'minot bo'lishi shart. Ayniqsa chekka hududlarda yashovchi o'quvchilar yoki iqtisodiy imkoniyati cheklangan oilalar uchun bular doim ham mavjud emas. Bu esa ta'limda tengsizlikka olib keladi va ba'zi o'quvchilarning raqamli ta'limda orqada qolish xavfini tug'diradi.

O'zbekiston umumta'lim maktablarida AKT infratuzilmasi: statistika va xalqaro taqqoslash:[8]

Ko'rsatgich	O'zbekiston	Taqqoslash (boshqa davlatlar)
Har bir o'quvchiga to'g'ri keladigan kompyutera soni	0.03 (qishloqlarda 0.04)	Qozog'iston – 0.72, Ozarbayjon – 0.55, Belarus – 0.55, Turkiya – 0.25, OECD – 0.85
Kompyuterlarning internetga ulanish darajasi	71.6% (qishloqlarda 69.4%)	Turkiya – 92%, Ozarbayjon – 80%, Belarus – 85%
Kompyuter sinflariga ajratilgan mablag' (2023)	220mlrd so'm (~17.5 mln USD)	Noma'lum

Diqqatsizlik. O'quvchining e'tibori onlayn dars jarayonida atrof-muhit va telefondagi har xil ilovalar orqali chalg'ishi mumkin. Bu esa ta'lim sifatining pasayishiga olib keladi. Ekran qarshisida uzoq vaqt qolish esa charchoq va ruhiy tushkunlikka olib kelishi mumkin.

Chet tilini o'rganishda tirik suhbat, tana tili va yuz ifodalari muhim hisoblanadi. Ammo onlayn darslarda bu jihatlar chegaralangan bo'ladi va real kommunikatsiya muhitini yetarlicha aks ettirmaydi. Masofaviy ta'limda o'quvchi topshiriqlarni o'zi bajaryaptimi yoki boshqa biron yordami bilanmi aniqlash qiyin. Bu vaziyat o'zlashtirish darajasini aniq ko'ra olmaslik va baholashda adolatsizlik bo'lishiga olib keladi.

Bugungi kunda o'quvchi - talabalar orasida sun'iy intellekt, ya'ni ChatGPTdan foydalanish va unga haddan tashqari suyanib qolish holatlari kuzatilmoqda. Aslida, uning ham yetarlicha salbiy tomonlari mavjud. ChatGPT — grammatikani tekshiruvchi, tarjima qiluvchi va matn yozuvchi sun'iy intellekt hisoblanib. ChatGPT va boshqa AI yordamchilar o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayoniga ta'sir ko'rsatishi mumkin, shuning uchun ularni o'qitishda pedagogik nazorat va akademik halollik qoidalari qo'llanishi lozim. Tayyor yechimlarga tayanib qolgan o'quvchi mustaqil o'rganish, izlanish odatidan uzoqlashadi. Ba'zida undan raqamlar yoki faktlar haqida so'ralganda noto'g'ri, chalkash ma'lumotlar berishi mumkin. Bunday noto'g'ri va yolg'on ma'lumotlarni o'quvchi - talabalar ilmiy ishlarida qo'llab yuborishlari mumkin.

Ko'rib chiqqaimizdek, har bir innovatsion texnologiya o'ziga xos afzallik jihatlariga egadir. Bunday usullarning barchasida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik, o'quvchining ta'lim

jarayonidagi faol harakati ko'zda tutiladi. Axborot texnologiyalari chet tilini o'qitishda katta imkoniyatlar ochib bermoqda. Bu vositalar orqali dars jarayonlari yanada qiziqarli, interaktiv va samarali bo'lib bermoqda. Shu bilan birga texnologiyalarni qo'llay bilish uchun muayyan sharoit va metodik yondashuv talab etiladi. O'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirish, yaxshilash va raqamli ta'lim resurslarini kengaytirish orqali bu sohadagi muammolar bartaraf etilishi mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Prizel-Kania, A. (2015). Surfing the global network! How to incorporate ICT and social media in teaching and learning foreign languages. *Procedia – Social and Behavioral Sciences*, 174, 2777–2782. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2015.01.967>
2. Beatty, K. (2013). *Teaching and researching computer-assisted language learning* (2nd ed.). Routledge.
3. Warschauer, M. (1996). Computer-assisted language learning: An introduction. In S. Fotos (Ed.), *Multimedia language teaching* (pp. 28–29). Tokyo: Logos International.
4. Khasanova, G. (2021). Mobil ilovalar orqali ingliz tilini o'rganish: imkoniyatlar va afzalliklar. *Filologiya va tillarni o'qitish*, 1(2), 78–82.
5. Liu, Q., & Xu, Y. (2023). AI-based writing tools in ESL classrooms: A case study of Grammarly and ChatGPT. *Journal of Language Learning Technologies*, 10(1), 46–47.
6. UNESCO. (2020). Distance learning strategies during COVID-19 school closures. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000373305>
7. Raqamli texnologiyalar vaziri maktablardagi internet va kompyuterlar soni bo'yicha ma'lumot berdi. (2024, 14-mart). *Gazeta.uz*. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/03/14/internet/>
8. Hoshimov, O., & Yoqubov, I. (2003). *Ingliz tili o'qitish metodikasi: O'quv qo'llanma*. Toshkent: Sharq nashriyoti.